




Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 4-oktabr, chorshanba,

117 (23.838)-son

**KUN
HIKMATI**
Huzuringiza
tashvish bilan
kelgan odamning
o'mniga o'zingizni
qo'yishni
o'rganing

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) <https://www.instagram.com/zarnews.uz>

MEHNATI QADR TOPAYOTGAN FIDOYILAR

Viloyat musiqali drama teatrida O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri o'tkazildi. Tadbirga viloyatda yosh avlod ta'lif-tarbiysi yo'lida jonsbozlik ko'rsatayotgan faol ustozi va murabbiylar, mehnat faxriyili taklif etildi.



Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov barcha ustozi va murabbiylarni bayram bilan qutladi.

- Farzandlarimiz maktabda 11 yil o'qidi, - dedi viloyat hokimi. - O'quvchilarining shu muqaddas maskanda qay darajada ta'lif va tarbiya olishida ustozlarning hissasi katta, albatta. Ularning bilmil, aqli, shuningdek, o'qituvchilarini va ota-onasini hurmat qiladigan, haqiqiy vatanparvar inson bo'lib voyaga yetishida sizga suyanamiz. Bu yo'lda barchangizga kuch-quvvat tilaymiz.

Tadbirda Prezident farmoniga ko'ra mukofotlangan fidoyi o'qituvchi va murabbiylarga orden va medallar topshirildi. Shuningdek, bir guruh faol uszlolar ko'krak nishonlari, faxriy yorliq va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

- Ilgari 1-oktabr kuni kasb bayramimizni paxta dalalarida nishonlardik, - deydi Urgut tumaniagi 87-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Zamira Kenjayeva. - Bugun o'qituvchilariga berilayotgan imkoniyatlarni yana qidoylikka undamoqda. Mehnatimiz qadr toptyapi. 32 yillik ish faoliyatim samarasini bo'lsa kerak, bugun bayram tadbirida II darajali "Sog'liom avlod uchun" ordenini bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimidan keyin tadbir ishtirokchilar uchun viloyat musiqali drama teatri jamoasi tomonidan "Yalangto'sh Bahodir" spektakli namoyish etildi.

Bayram tantanasi "Diyora" bazmogohida bir piyola choy ustida madaniy tadbir bilan davom etdi.

To'lg'ın SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).



Markaziy Osiyo yosh ekofaollari Samarqandda

Samarqandda Markaziy Osiyo yoshlari ekologik oromgohi tashkil etildi. "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida dastur doirasida ekologik forum bo'lib o'tdi.

Tadbirda Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va yurtimizning turli viloyatlardan kelgan 60 nafardan ziyod yosh ekofaollar ishtirok etdi.

Markaziy Osiyo yoshlarining birinchi ekologik forumida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, UNICEFning O'zbekistonning vakolatxonasi rahbari Munir Madzhedzade va boshqalar so'zga chiqib,

ishtirokchilarini qutladi.

Ta'kidlanganidek, Markaziy Osiyo ekologik muammolar ta'siri yuqori bo'lgan mintaqaga hisoblanadi. Bu masalada hukumat rabbarlari, mutaxassislari xalqaro minbarlarda ham qayta-qayta bong urishmoqda.

Albatta, yoshlar ertamiz egalari sifatida ayni masalaga befarq emas. Mintaqada birinchibor tashkil etilgan eko-oromgoh bu boradagi tashhabbuslar, yangi fikr va g'oyalalar uchun minbar vazifasini o'taydi.

- Eko-oromgoh tashkil etish tashabbusi ham yoshlarimiz tomonidan ilgari surildi,

- deydi "Zamin" xalqaro jamoat fondi direktori o'rinnbosari Abdugahor Abdug'aniev.

- Bugun aynan ular yangi g'oyalalar drayveri hisoblanadi. Shu bois tadbirda biror mavzu bo'yicha cheklav yoki yo'naliш belgilanganini

yo'q. Ishtirokchilarning o'zları mintaqadagi ekologik muammolarni tahlil qilishadi va ularni bartaraf etish bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqishadi. Ayni jarayonda ularga ko'mak berish uchun soha mutaxassislarini ham jala qilingga.

Besh kunlik tadbir davomida Markaziy Osiyoda yoshlar ekologik harakatini integratsiya qilish orqali mintaqaviy ekonomi-daniyat strategiyasi va boshqa qator loyihibar ishlab chiqiladi. Ular Birlashgan Arab Amirliklaridagi SOP 28 - Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyada taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Dastur doirasida xalqaro ekspertlar ishtirokida seminarlar, uchrashuv va tegishli strategiya loyihasi bo'yicha muhokamalar tashkil etilishi belgilangan.

Osiyo o'yinlari:
**Sportchilarimizda
hozircha**

9 MEDAL

Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilayotgan XIX yozgi Osiyo o'yinlari da 45 mamlakat sportchilari bellashmoqda. Musobaqa-larda 32 ta olimpiya va 6 ta noolimpiya sport turi bo'yicha O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida 390 nafar sportchi ishtirok etmoqda.

(Davomi 3-sahifada) >>>



Kinoijodkorlar taqdirlandi

2-oktabr kuni Samarqand shahridagi "Boqiy shahar" majmuasida "Ipak yo'li durdonasi" XV Toshkent xalqaro kinofestivalining tantanali yopilish marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimda ikki karra Oskar mukofoti sohibi, "Yetti", "Qog'ozli uy" film-laridagi rollari bilan mashhur amerikalik aktyor Kevin Speysi hamda o'zbek tomoshabinlariga "Taksi" filmidagi ijrosi bilan tanish bo'lgan fransiyalik aktyor Sami Naseri, shuningdek, 400 ga yaqin jahon va o'zbek kino yulduzlarini, kinoijodkorlar, aktyor va aktrisalar, rejissyor va kinooperitorlar, prodyuser va kinotanqidchilar, kinoshunos olimlar ishtirok etdi.

Kinematografiya agentligi direktori Firdavs Abduxoliquov barchani muvaffaqiyatlari o'tkazilgan yana bir festival bilan tabrikladi. Samarqand shahri haqida tayyorlangan lavha namoyish etildi. Shundan so'ng turli yo'naliшlar da eng yaxshilar taqdirlandi.

Eng aval keyingi yillarda Samarqandda suratga olingan yoki ko'hna shahar hayoti bilan bog'liq filmlar ijodkorlari "Samarqandda qovun tarovati" kinokartinasini rejissyori Ali Hamrovoy hamda "Matonat" hujatli filmi rejissyori Shuhrat Mahmudov sahnaga taklif etildi.

- "Matonat" filmini kinematografiya agentligi va Samarqand viloyati hokimligi bilan hamkorlikda suratga oltaganmiz, - deydi film rejissyori SH.Mahmudov. - Bugun ushbu filmning xalqaro darajada e'tirof etilgani bejiz emas. Film ikkinchi jahon urushida qatnashgan 101 nafar o'zbekistonlik yurtdoshimiz haqida bo'lib, u urushda g'alabaga qo'shgan hissasi hamda

Nederlandianing Amersfort shahrida joylashgan konslagerlarda halok bo'lgan o'zbek askarlariga bag'ishlaniadi. Ularning ko'pchiligi shu ko'hna zamin - Samarqand farzandi.

Tadbir davomida jahon kinosi rivojiga qo'shgan hissasi uchun rejissyorlar rossiyalik Aleksandr Sokurov, gruziyalik Irakliy Kvirkadze va italyalik Piyetro Marchellolar taqdirlandi. Shuningdek, tadbir davomida Markaziy Osiyo film-lari tanlovi g'oliblari ham e'lom qilindi. Unda Tojikistonning "Fortuna" filmi festival direksiyasining maxsus sovriniga, qozog'istonlik rejissyor Maksim Akbarovning "Sahro" kinokartinasini eng yaxshi debuyut nominatsiyalariga loyiq ko'rildi. "Shuvoq hidi" filmidagi roli uchun Dastan Aybek eng yaxshi aktyor, "Esimda" filmidagi ijrosi uchun Talaaykan Abazova eng yaxshi aktrisa, Darxon Tulegenov "Aka-ukalar" filmi uchun eng yaxshi rejissyor deb topildi.

Hakamlar hay'atining maxsus mukofoti "Ademokaning sabog'i" filmi uchun Adilxon Erjanovga nasib etdi. Eng yaxshi film nominatsiyasida o'zbekistonlik rejissyor Shokir Xoliquovning "Yakshanba" filmi g'olib bo'ldi. Tadbirda mashhur san'atkorlarning chiqishlari tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Yopilish marosimi oldidan kinofestival ishtirokchilarini ko'hna shaharning diqqatiga sazovor manzillarini ziyorat qildi.

Tadbirda viloyat hokimining o'rinosi Rustam Qobilov ishtirok etdi.

Jasur SHUKUROV.

O'quvchilarimni fan olimpiadasiga olib chiqmoqchiman

Bu yilgi kasb bayramimiz har doimgidan ko'tarinki ruhda o'tdi. O'qituvchi va murabbiylar chin dildan qadrlandi, e'zozlandi, taqdirlandi. Ular qatorida kamtarona mehnatim Prezidentimiz tomonidan "Shuhrat" medaliga loyiq ko'rildigan boshim osmonga yetdi. O'z kasibimga bo'lgan mehrim, shiojatim va sadoqatim yanada oshdi.

Prezidentimiz biz o'qituvchi va murabbiylaryo'llagan tabrigida ta'lif sohasida olib borayotgan islohotlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un va hamohang ekanini aytgan. Bu esa soha faoliyatida to'g'ri vaadolatli siyosat olib borilayotganini bildiradi.

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor o'qituvchi maqomi belgilanilar, ularga bo'lgan hurmat va e'tibor yanada oshdi. Maktabda o'qituvchi obro'ga ega bo'lsa, o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi, ta'lif sifati ko'tariladi.

Jamiyat rivoji, mamlakat taraqqiyoti bilimli, salohiyatlari mutaxassislariz



ta'lif maktabiga ishga kirdim.
O'qituvchi shunday kasb egasi, unga ozingiz e'tibor va hurmat ko'satsilsa, bor mehri va shiojatini ta'lif-tarbiya berishiga bag'ishlaydi. Bu kasbda faqat fidoyilargina mehnat qiladi.
Fursatdan foydalanib, o'zbekistonlik barcha o'qituvchilar nomidagi bizga ko'satsilayotgan g'amxo'rlik va e'tibor uchun Prezidentimizga minnatdorchilik bildiraman.
Mehriddin JAHONOV,
Kattaqo'rg'on tumanidagi 2-umumi
o'rta ta'lif maktabi ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi.



SEKTORLAR ENDI BOSHQACHA ISHLAYDI

Garchi joriy etilganiga olti-etti yil o'tgan bo'lsa-da, sektorlar tizimida kutilgan natijaga erisha olmayapmiz. Vaholanki, viloyat, shahar va tumanlarda to'rtta sektor uchun ham shtablar tashkil etildi, shtab a'zolari ning samarali ishlashi uchun zarur sharoit yaratildi, bu faoliyatning qonuniy asoslari mustahkamlandi.

O'tgan vaqt davomida tizim jamiyatga ancha yaqinlashdi. Eng muhimmi, hokim, prokuror, IIB boshlig'i, soliq idorasi rahbari maqsadini bira yo'nalishga - xalqni rozi qilishga yo'naltirdi. Barcha tahli va monitoringlar sektorlar kesimida muhokama qilinadigan bo'ldi, ularning reytingi joriy etildi. Sektor rahbarlarini mahalliy kengashlarida o'z faoliyati yuzasidan hisobot bera boshladi. Binobarin sektor rahbarlari ham jinoymatchilikning oldini olish, soliq tushumini ko'paytirish, aholining islohotlardagi faolligini oshirish uchun eng avvalo, bandlikni ta'minlash, real daromadni oshirish, kam ta'minlanganlarini qo'llab-quvvatlash va bu borada hamkorlikda ishlash zarurligini tushunib yetishdi.

Ming afsuski, shuncha harakatlarga qaramasdan, sektorlar tashabbuskorligi va samaradorligidan ko'ngil to'imayapti. Davlatimiz rahbari sohalar tahviliga bag'ishlangan selektor yig'ilishlarida ham bu haqa bir necha bor aytilib o'tdi. Xo'sh, bu holatlarning sababi nimada?

Viloyat hokimligida bo'lib o'tgan yig'ilishda aynan ana shu savolga javob izlandi. Unda viloyatdagi barcha sektorlar hamda tashkilotlar rahbarlari ishtiroy etdi. Ta'kidlandiki, avvalo, sektorlar shtabi a'zolari tarkibini shakllantirishda xatoliklarga yo'l qo'yilgan, ya'ni ayrim tashkilot rahbarlari shtab a'zoligiga no'noq yoki tajribasiz xodimlarini jaib qilgan. Buning ustiga, bu xodimlardan so'rov bo'lmagan, ular faoliyati tahvil qilinmagan, faqat sektor shtabi kotibiga faoliyat ko'rsatgan.

Bu holat Samarqand shahar birinchi sektori shtabi a'zolari bilan suhabat chog'ida yaqqol ayon bo'ldi. Viloyat hokimi anjuman ishtirokchilarini oldida ular bilan savol-javob qildi. Ming afsuski, ular o'z vazifalarini haqida aniq gapira olmadi. Ayrimlarining esa kasb markazasi ham talab darajasida emas ekan. Demak, ular aholi talabini o'rganish va qondirish salohiyatiga ega emas.

- Endi bunday tarzda ishlab bo'lmaydi, - dedi viloyat hokimi E.Turdimov. - Davlatimiz rahbari qo'yanan talabga javob berish, mahalla boshqaruvini takomillashtirishda joriy etilgan tizimni qo'llab-quvvatlash uchun sektorlar ishlari keskin Jonlantirish zarur. Aholining barcha talablarini, yangi loyiya va takliflar aynan sektorlar shtabida puxta tahvil qilinishi hamda ijroga yo'naltirishi lozim. Toki, bu shtab aholining chinakam g'amxo'r idorasiga, ma'naviyat markaziga aylansin.

Yig'ilishda sektorlar faoliyatini jonlantirishning asosiy vazifalari belgilab olindi.

Birinchidan, sektorlar shtabi a'zolari sifat tarkibi qayta ko'rib chiqiladi. Ularga o'z kasbining ustasi bo'lgan, bilimdon, tafakkurli mutaxassislar kiritiladi.

Ikkinchidan, tashkilot rahbarlari sektor shtabiga jaib etilgan mu-taxassislarni boshqa ishlarga yo'naltirmaydi.



Mergancha mahallasida yashovchi Subhon Egamov o'ziga tegishli bo'lgan binoni ta'mirlab, tikuvchilik sexi ochdi. Korxonada ishsiz uy bekalari, "Ayollar daf-tari"dagi xotin-qizlar ishlarni bilan band.

- Xayrli ishga qo'l urdir, - deydi S.Egamov. - Yangi sexda tikuvchilikka qiziqqan xotin-qizlarga kasb sir-asrorlari o'rgatilishi bilan bir qatorda mijozlar uchun ham xizmat ko'rsatildi.

Hozircha seximizda 4 nafar xotin-qiz ishlarni bilan ta'minlandi. Kelgusida yangi zamonaviy tikish mashinalari keltirib, ko'proq xotin-qizlarga tikuvchilikni o'rgatishni niyat qildik.

Nazira HAMIDOVA,
Urgut tumani.

"MAHALLA YETTILIGI"ga RAIS BOSH BO'LADI

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining noyob usuli - mahalla instituti azaldan chinakam milliy qadriyatlar, ezgu amallar maskani bo'lgan. Keyingi yillarda bu institutning takomillashtirilishi natijasida davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati yanada yuksaldi.

26-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mahallabay ishslash tizimini yanada kuchaytirish, "mahalla yettiligi"ni tashkil qilish bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda amaldagi "mahalla beshligi" o'z sarmasini berayotgani qayd etildi. Lekin bu bilan to'xtab qolmaslik, mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantrish zarurligi ta'kidlandi hamda "etti-lik tizimi" faoliyatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi.

- Mahallalarda hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi kabi yangi mutaxassislar ish boshlaganiga hali ko'p vaqt bo'lmadi, ammo ularning faoliyati natijasi qisqa vaqtida yaqqol ko'zga tashlana boshladi, - deydi viloyat kam-bag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinosbosari Shohruh Eshonqulov.

- Buni aholining mahallaga ilgarigidek moddiy yordam so'rab emas, ko'proq tadbirkorlik faoliyatini yo'iga qo'yish uchun murojaat qilayotgani, xotin-qizlar va yoshlar yaratilayotgan sharoitdan unumli foydalanishga intilayotganidan ham bilish mumkin. Aholining bu boradagi intilish va sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlatimiz rahbari mahalladagi "beshlik tizimi"ni yanada takomillashtirish, barcha masalalarni bir joyda hal etish uchun imkoniyat yaratish lozimligini ta'kidladi. Ma-halla institutining yana-da isloh qilinishi ijtimoiy ko'makka muhuj oilalarga yordam berish, jinoymatchilik, oilalarda zo'ravonlikning oldini olish, aholi bandligi, ijtimoiy muhofazasi kabi masalalarni hal etishda muhim ahamiyatiga ega. Ana shunday vazifalarni bajarishda har bir mahallaning o'z yondashubi, yo'nalishi bo'ladi. Eng muhim, bularning barchasini hal etish uchun tashkiliy chora-tadbirlarni to'g'ri belgilash barobarida moliyaviy ko'makka ehtiyoj tug'iladi. Shu jihatlar e'tiborga olinib,

BU FAKTO!

Joriy yilning birinchi yarmida viloyat bo'yicha **4422,1** milliard so'mlik qurilish ishlari bajarildi. Bu o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, **108,2** foizni tashkil qildi.

Yilning birinchi yarmida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **721** milliard so'mni tashkil etdi. 2022-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,4** foizga yetdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **16,2** foizni tashkil qildi.



mahallaning moliyaviy mustaqilligini ta'mirlash maqsadida aholidan yig'iladigan mol-mulk va yer solig'ining 10 foizini mahalla budgetida qoldirish tizimi joriy qilindi. Bu amaliyat viloyatimizdan tanlangan Urgut tumani misolida o'zinig ijobiy natijasini berdi. Endi ushbu amaliyotni barcha mahallalarda joriy qilish maqsadida mahalladagi "beshlik"ka soliqchi hamda mahallaning o'zida yolg'iz keksa, nogiron va boshqa muhtojlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodim qo'shilib, birkalga ishlaydigan "mahalla yettiligi" tashkil etilyapti. Endilikda aholi 3 ta ijtimoiy daftarga kiritiladi, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar mahallaning o'zida, jamoaviy hal qilinadi. Shuningdek, 3 ta daftarga beriladigan mablag'lar bandlik, tadbirkorlik va kasanachilik jamg'armalaridan har bir mahallaga taqsimlanadi. Ya'ni, mablag'ni ishlashit mahallaning o'ziga, "ettilik" ixтиoriga beriladi.

Ushbu tuzilma imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida endilikda mahallalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman, shahar kengashlari joriy etiladi. Hududiy kengashlarga hokimlar rahbarlik qiladi. Kengashlar "mahalla yettiligi" qo'yan masalalar bo'yicha har bir tumanning xususiyati, mahallalarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, muammolarga yechim topadi, moliyaviy manbalarini aniqlaydi. Bundan tashqari, tuman bandlik idoralarining bir qator vazifalari mahallaga o'tkazildi. Jumladan, jamoat ishlari jamg'armasi mablag'larini hisobidan ishsiz aholini obodonlashtirish va mavsumiy ish-larga jaib qilish, ularga haq to'lash vakolatini mahalla raisiga beriladi. Tuman mehnat bo'limlari vakant o'rinlar haqidagi ma'lumotlarni mahallaga taqdim etib boradi. Mahalla raisi o'z hududidagi ishsizlarni ishga joylashtiradi.

Videoselektorda ta'kidlanganidek, mahalladagi "beshlik" har biri o'z vazirligiga hisobdorligi sabab yagona jamoa sifatida kutilganidek samara bermadi. Shuningdek, ijtimoiy daftarlardagi mablag'larini to'g'ri taqsimlashda "beshlik"ning hamkorligi, mahalla raisining o'rni bilinmayotgani, ijtimoiy daftarlari mahalladagi mas'ullar tomonidan alohida-alohida yurilayotgani, vazifalarida ko'p takorlanishlar borligi aniq ko'rsatib o'tildi.

- Shu bois "mahalla yettiligi"ning vazifalari aniq belgilab berildi, - deydi Payariq tumani "Zarafshon" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Sobir Rahimov. - Endilikda mahalla raisi ehtiyojmand oilalarga uy-joyini yaxshilashga, hokim yordamchisi ishsizlarga ish topishga ko'maklashadi, yoshlar yetakchisi yoshlarni sport, musiqa va boshqa to'garaklarga jaib etadi, xotin-qizlar faoli ayollarni tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilikka yo'naltiradi. Yangi qo'shilgan soliq xodimi mahalladagi imkoniyatlarni ishga solib, soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirishga hamda o'zini o'zi band qilganlarga kichik biznes tofasiga o'tishga ko'maklashadi. Ijtimoiy xodim esa yolg'iz keksa, nogiron va boshqa muhtojlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish kabi aniq vazifalar bilan shug'ulanadi. Har bir mahallaning o'z muammosi, tashvishi bor. Uning yechimini topish mahalla faollarining har biridan, ayniqsa, oqsoqoldan tashabbuskorlik talab etadi. Qolaver-za, aholining xohish-istagini ham inobatga olish kerak. Mahalladagi vazifalarini hamfikr bo'lib, yetti o'chab bir kesmasdan hal etib bo'lmaydi.

Ushbu islohotlar kelgusida mahalla institutining hayotimizdag'i o'rnnini yanada mustahkmalab, bu tizimni jamiyat rivoji yo'lida muhim qarorlar qabul qiluvchi yetakchi markazga aylanadiradi va har bir sohada yangi yutuqlarga zamin yaratadi.

Sulaymon MARDIYEV.



RAIS BOBO

JONIQUL YUSUPOV SHU NOM BILAN TANIQLI BO'LGAN

O'z davrining taniqli paxtakori, pastdarg'omlik dongdor rais, Mehnat Qahramoni Joniqul Yusupov yashab o'tganiga 35 yildan oshdi. Ammo u kishining nomi nafaqat Samarqandda, balki respublikamizda hamon mash-hur, amalga oshirgan xayrli, ezgu ishlari, odamlarga qilgan yaxshiliklari davralarda tez-tez eslanadi.

QAHRAMONLIKKA MUNOSIB INSONLAR

Yaqinda qishlog'imizda o'tgan ma'rakada ham shunday bo'ldi. Yoshi ulug' otaxonlardan biri gap boshladidi:

- Joniqul aka u yog'i Moskva, bu yog'i respublika rahbariyati bilan gaplashadigan juda katta salohiyatga ega rai bo'lsa-d, oddiy odamlar bilan oddiy kishilarde suhbatlashar, birlgilida har qanday ishni o'zi bosh bo'lib bajarib ketaveradi. 1970-yillarning boshi edi adashmasam. U kishi rais bo'lgan Karl Marks nomli xo'jalikni yanada kengaytrish uchun dasht huddudagi yer o'lashtirilgan bo'lib, bu maydonlarga ekilgan g'o'za nirollari begona o't bilan qoplandi. Joniqul aka darhol qishloqlarda yashayotgan odamlar va kolxoq ischlalarini o'sha joyga jaib qildi. Ammo yo'li uzoq, kolxozda bittagina "bortovoy" mashina bor, traktorlar katta xo'jalikning boshqa ishlardan ortmaydi. Shunda Joniqul aka mashinasini chopiqlarchilari dalaga olib borishga berib, o'zi xo'jalik idorasidan 5-6 kilometr olsida bo'lgan kolxozi fermasiga piyoda jo'nadi.

Yaxshi eslayman, o'shanda qishloqda qo'liga biror marta ketmon olmagan kishilar ham raisning mashinasiga minishga qiziqib, dalaga borgandi. "Bortovoy" va raisning mashinasi 4-5 marta odamlarni dalaga eltdi. Tushga yaqin "bortovoy" dan dalaga qozon-o'choq, samovar va katta novvos, raisning mashinasidan esa non va meva-chevalar tushirildi. Shu kuni ishchi va hasharchilarga tushlikka katta dasturxon yozildi. Joniqul akaning o'zi kechga yaqin dalaga keldi va ayollaru qizlarga ertaga tongdan yana chopiqlarini kelishilarini tayinlab, mashinalarda uylariga jo'natdi. O'zi kechqurun biz, kolxozing 50-60 chog'i ishchi va hasharchilari bilan qolib, qizg'in suhabat qurdi, hazil-huzul hangomalar bilan odamlarni kuldirib, charchog'ini chiqardi. Ertalab hammani ishga chorlarkan. "Dalada kesakni yostiq qilib, pashsha ga talanib yotishning ham o'ziga yarasha gashti bor-da, azamatlar", degandi.

Joniqul akadek fidoyi raisning bu gapi hali-hanuz qu-log'im ostida jaranglaydi. Qaniyi, bugun ham shunday samimiy insonlar bo'lsa...

Davraning to'rida o'tirgan ikkinchi otaxon suhbatni davom etti:

- Samarqand oblast partiya qo'mitasining birinchi kotibi Vladimir Qodirov haqida eshitgan chiqarsizlar. U kishi haqqo'y va talabchan rahbar edi. Obkom bo'lib ish boshlagan dastlabki paytlarda yonidagilar Joniqul Yusupov haqida turli bo'hton gaplarni aytibdi. Qodirov tushga yaqin xo'jalikka borar ekan, bu haqda na viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi, na tuman partiya qo'mitasiga xabar qilgan. Maqsadi - Joniqul Yusupov va ayrim brigada boshliqlarining nima ish bilan mashg'ul ekanliklarini hech kimga bildirmay bilib olish va shunga qarab, xulosa qilish bo'lgan.

Idoraga kelsa, rais yo'q. "Biror joyda dam olib yotgandir", degan fikrda jahl bilan xo'jalik dalasiga yo'l olibdi. Uzoqdan "Villis UAZ"ni ko'rib, shofyoriga o'sha tomonga haydashni buyurdi. Borsa, Joniqul aka suvchi bilan birga yengini shi-marib, katta ariqqa band tashloyotgan, haydovchisi esa ariq suvini to'sish uchun oldinroqqa "Villis"ning zaxira ballonini tashlab turgan ekan. Vladimir Qodirov vallomat raisning bun-day ish qilishini kutnaganligini sezdirmasdan, u kishiga:

- Yana bir suvchini chaqirsangiz bo'lmaydimi? - debdi.
- Boshqa suvchining o'z ishi bor-da, Vladimir Nikolayevich. Qolaversa, ular kelguncha bir ariq suv boshqa paykallardagi jo'yaklari ham urib ketadi, - deb javob beribdi.

So'ngra viloyat rahbari raisga "Boyo'tra Ko'makov de-gan qahramon brigada boshlig'ingiz bor ekan. Yuring-chi, shu brigadadagi ishlari bilan ham tanishaylik", debdi.

Joniqul aka "Bajonidil" deb, u kishini o'sha brigadaga boshlabdi. Borishsa, ayni kun qizig'an paytda ikki kishi telejordan qoplangan mineral o'g'itni tushirayotgan ekan. "Nega bu bechoralarni tushlik paytida, shunday issiqaqda ishlatyapsizlar? Brigada boshlig'ining o'zi qani?", - debdi V.Qodirov jah bilan. Joniqul aka "Boyo'tra, ishingni qo'yib, bu yoqqa kel. Viloyat rahbari sen bilan tanishmoqchi", deya uni yoniga chorlabdi. U kelgach, V.Qodirov ishlayotgan haligi kishilardan biri ilg'or brigada boshlig'i Boyo'tra Ko'makov, ekanligini bilgach, brigada yetak-chisining o'zi "dori" tushirayotganiga hayron qolib, "Yoningizdag'i kim?" deya so'rabi, xolos. Boyo'tra aka "Tabelchim, tush payti ishchilar dam olishi kerak. Shuning uchun tabelchim bilan shuni tushirib qo'yayolaylik, deya harakat qilib yotgandik", debdi.

So'ng viloyat rahbari Joniqul akani chetga tortib, "Ha, qahramonlikka munosib odan ekan, sizga ham, brigadirigiza ham sovg'am bor", debdi. Shundan uch kun o'tmay, V.Qodirov Boyo'tra akaga yengil avtomobil, Joniqul akaning iltimosi bilan xo'jaligiga yangi kultivator sovg'a qilgan ekan.

Joniqul Yusupov ana shunday kamtar, ishchan, serharakat, shijoatlari inson edi. Shu tufayli ham u kishi el-yurtimiz hurmatini qozongan.

YOSH RAISNING SHIJOATI

Yaqinda tahririyatimiza Joniqul Yusupovning nabirasi, viloyatimizda idoralardan birida mas'ul lavozimda ishlayotgan Abdumalik Yusupov kelib, bobosi hayoti va faoliyati, ezgu amallariga oid ma'lumotlar, suratlarni keltirdi.

- O'zim ham ko'p davralarda bo'lganimda odamlar bobomning ibratlari hayoti, ish faoliyati davomida qilgan yaxshiliklari, xayri ishlarni aytib, hurmat va ehtirom bilan xotiraganlariga guvoh bo'lib, ko'nning tog'dek o'sadi, shunday insonning nabirasi bo'lganimdan faxrlamanan, - deydi Abdumalik.

Joniqul Yusupov 1918-yil 2-may kuni Past Darg'om tumanining Zormon qishlog'ida tug'ildi. Ikkinchini jahon urushi boshlangach, akasi Primqul Yusupov ikkala bo'raq qat'ida tengqurli qatori ko'ngilli bo'lib frontga otlangan. Fashistlarga qarshi mardonavor jang qilgan. Urushda akasi bedarak ketgan, o'zi esa urushdan qaytgach, tumandagi "Qizil mehnat" nomli jamaoa xo'jaligida oddiy ishchi bo'lib ishlagan. Shijoatliligi, tashkilotchiligi va tashabbuskorligi bilan jamoadoshlarining e'tiboriga tushgan Joniqul Yusupovni 1947-yilda xo'jalikka rais etib saylashadi. Urush olis qishloqlarda ham o'z asoratini goldirgan, mashaqqatli mehnat keksayu yosh bolalar zimmasida qolgan, xo'jalik iqtisodiyoti juda pasayib ketgandi. Texnika yetishmas, ot-ulov, ho'kiz-omoch bilan dehqonchilik qilish

Anjuman ulug' adib va davlat arbobi Sharof Rashidov abadiyatiga bag'ishlab yozuvchi Abuqayum Yo'idoshev tomonidan yozilgan "Sharaf yo'li" romanini hamda shoirha Sayyora To'chiyevaning "Sharofnomma" dostoni taqdimoti bilan boshlandi.

Tadborda so'z olgan SamDU rektori, senator Rustam Xolmurodov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalistlar Shuhrat Jabborov, Farmon Toshev, "Ishonch" va "Is-honch-doveriye" gazetalarini bosh muharriri Husan Ermatov, mehnat faxriysi Abdushukur Muhammadqu-

lov, Jizzax shahridagi Sharof Rashidov ilmiy ma'rifi yodgorlik uy muzeysi direktori Odil Hamroqulov Sharof Rashidovning ezgu ishlarni yodga oldilar. Aynan Samarqand davlat universiteti ham adib nomi bilan boshlagani faxr ekanligi ta'kidlandi. Mazkur kitoblarda Sharof Rashidovning siyosasi gavdalanganligi alohida tilga olindi.

- "Sharaf yo'li" romanida Sharof otaning Samarqandagi mehnat faoliyati alohida ochib berilgani ham nafaqat meni, balki boshqalarning ham yangi ma'lumotlar olishiga imkon berdi, - dedi

Sh.Jabborov. - Qolaversa, bu kabi asarlarni yaratishda muallifdan kuchli e'tiqod talab etiladi, aynan mazkur kitoblarda buni ko'rish mumkin. "Sharofnomma" dostoni bu ulug' inson hayotiga chizgilar bo'lib, 156 nafar el tanigan insonlar fikrleri jamlanganli bilan ahamiyati bo'libdi. Albatta, asarda keltirilgan kichik ma'lumotlar har qanday o'quvchini o'qishga va izlanishga undaydi.

Tadbir davomida mualliflar mazkur kitoblarining yaratilish tarixini so'zlab berdi.

Husan ELTOYEV.

Shaxs va jamiyat



2023-yil 4-oktabr,
chorshanba

"desantchi"lar to'dasi "paxta ishi" bahonasida respublikamizga kelib, "qama-qama" boshlanganda, garchi Joniqul aka Moskvada davolanganayotgan bo'lsa-da, biror kishining nohaq, asosiz ayblanishiga yo'l qo'ymagandi.

Sharof Rashidov Joniqul aka bilan juda qadrondan bo'lgan. Samarqanda keldi deguncha, albatta, xo'jalikka tashrif buyurar, dehqonchilikni rivojlantirish bo'yicha maslahat, yo'l-yo'riq berib ketardi. Esimda, bir gal kelganda xo'jalik ichidan o'tadigan "Samarqand - Kattaqo'rg'on" yo'lining xo'jalik chegarasida suv chiqmagidan qaqrog dashda yerdagi bog' barpo etishni maslahat bergandi. Ko'p o'tmay, 30 getkortlik bog' barpo etildi, suv chiqarilib, shinam dam olish oromgohi qurildi.

U kishi g'o'za nirollarini o'z farzandidek ardoqlor, boshqalardan ham shuni talab qilardi, "Yerni, yetishtirayotgan ekinining jon-dildan sevib ardoqlamasang, ular seniga hech nima bermaydi. Nomigagina, qo'lli uchida mehnat qilib, o'zingin ham, yerni ham aldana, uning ham joni bor, aldaganining his qilib turadi", derdi. Shunga amalga qilgani bois paxtachilik sohasida "Usta dehqon-paxtakor Joniqul Yusupov maktabi"ni yaratib ketdi.

Shunday xizmatlari uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan paxtakor unvonini olgan Joniqul Yusupov katta bir avlod paxta ustalarini ham tarbiyalagandi. Ulardan Boyo'tra Ko'makov, Hamro Ergashev, Meli Qo'chqorov, urushdan bir oyog'ini yo'qotib, nogiron bo'lib qaytgan mohir mexanizator Qurbon Orziqulov Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Rasul Farmonov, Mar-di Yo'ldoshev, Hayit Salimov kabi paxtakorlar el nazariga tushdi. Narziqul Eshonqulov, Muxtor Sat-torov, Mansur Abduraimov, Tifli Bobonorov, Sobir Abduraimov, Ne'mat Nortoyev, Normurod Omonov, Rahmatulla Shodiyev, Ulug'murod Ernazarov, Abduvali Mustanov va boshqa ko'plab kadrlari yetuk rahbarlar bo'lib yetishdi.

AKA-UKA BO'LIB ISHLAGANMIZ

- 1986-yilda meni Go'zalik tumaniga birinchi rahbar etib tayinlashdi, - deb eslaydi mehnat faxriysi Mansur Abduraimov. - Yangi ishga o'rganib ketishim qiyin bo'limdi. Joniqul aka uncha-muncha raykom kobilari qo'z ta'sirini o'tkazishini avaldan eshitganman. Menga esa shu yerlik bo'lganim uchunni, unday qilmedi. Aksincha, bilmagan narsalarim, kadrlar haqida tushunchalar, maslahatlar berib yordam qildi.

Tumanimiz hududida qadimini "Oshiq ota" ziyoratgoji bor. O'sha yillarda atezmanning juda kuchchayn paytlari emasmi, ziyoratgoh va yonidagi qabristonni buzish haqida ko'rsatma oldim. Markaziy Komitetdan Medvedev deganini kelib, bu borada qilinayotgan ishlari bilan qiziqdidi. Ziyoratgohi saqlab qolishim kerak edi. Shuning uchun Joniqul akaga qo'ng'iroq qildimi. U kishi yuqorida kelgan vakil bilan uchrashib, nima dedi, qanday tushuntri, bilmadim. Har holda ziyoratgoh va qabriston buzilmay qoldi. Chunki Joniqul akani Moskvadagi "kazo-kazo"lar ham yaxshi bilar va kezi kelganda u kishining fikrlari bilan hisoblashishar edi.

Joniqul Yusupov bosh bo'lgan xo'jalik hamda 85-maktab uzoq yillar u kishining nomi bilan atab kelindi. Maktab hovlisiga va hozirda kasb-hunar kolleji bo'lgan sobiq xo'jalik idorasida byusti o'rnatilgan. XO'JALIK markazida Joniqul Yusupov muzeysi tashkil etilgan. Bu yerda Mehnat Qahramonlari, xo'jalik faxriyalarining ibratlari hayoti va mehnat faoliyatlarini bilan bog'liq eksponatlar saqlanadi. Jamoatchiliq vakillari, yaqinlari, talaba va o'quvchilar, yoru do'stalarining farzandlarini yerga kelib, xotira tadbirlarini o'tkazib turishadi.

Joniqul Yusupovning hayoti va mehnat faoliyati haqida batasif yozaman, desangiz, katta ber kitob bo'la'di. Biz maqolamizda bu inson bilan bog'liq ayrim xotiralarni qog'ozga tushirdik, xolos. Aslida Joniqul bobo Yusupov ibratlari hayotini, umrini ezunglikka, xayri ishlarga baxshida etgan insoni, sonchi, shuning uchun u kishining yodi, ezgu ishlari el tilidan tushmaydi.

Akram HAYDAROV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

5-OKTABR

Asliddin XUDOYBERDIYEV - 1972-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. Xalqaro toifadagi sport ustasi. "O'zbekiston iftixori" faxriy unvon sohibi.

Jo'raboy HAMDAMOV - (1929-2020) Andijon viloyati, Asaka tumanida tug'ilgan. Tilshunos olim.

Obloqul BOZOROV - (1932-2021) Buning ur tumanida tug'ilgan. Falsafa fanlari doktori, professor.

Gazetaning navbatdagi soni 2023-yil 7-oktabr, shanba kuni chop etiladi.

Navbatchi muharrir: G'.HASANOV.

Navbatchi: X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X

9 7 7 2 0 1 0 6 6 7 0 0 9

Saytimiza o'tich uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling

Sotuvda narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 441 nusxada chop etildi. Buyurtma 534. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'IMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМаркандский
Вестник

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Boshishga topshir